

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida	423



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HISOBBDORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY VA TA'LIMIY ASOSLARI**

**СОЦИАЛЬНЫЕ И УЧЕБНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У
БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

**SOCIAL AND EDUCATIONAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ACCOUNTABILITY SKILLS
IN FUTURE PEDAGOGUES**

Meliqo'ziyev Abrorjon Akram o'g'li

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida hisobbdorlik ko'nikmalarini rivojlanterishning nazariy-metodologik asoslari, mustaqil ta'lif asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda hisobbdorlik ko'nikmalarini rivojlanterish tizimi, mustaqil ta'lif asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda hisobbdorlik ko'nikmalarini rivojlanterish samaradorligi o'rjanilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda hisobbdorlik ko'nikmalarini rivojlanterishning ijtimoiy va ta'limiyl asoslari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы развития навыков ответственности в профессиональной деятельности будущих педагогов. Изучается система подготовки будущих педагогов к развитию навыков ответственности на основе самостоятельного обучения и оценивается эффективность этой подготовки. Также анализируются социальные и учебные основы развития навыков ответственности у будущих педагогов.

Abstract

This article discusses the theoretical and methodological foundations for developing accountability skills in the professional activities of future pedagogues. It examines the system for preparing future educators to develop accountability skills based on independent learning and evaluates the effectiveness of this preparation. Additionally, the social and educational foundations for developing accountability skills in future pedagogues are analyzed.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, texnologiya, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash, kreativ fikrlash, kasbiy faoliyat, mustaqil ta'lif, hisobbdorlik ko'nikmalarari.

Ключевые слова: будущие педагоги, технологии, компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактика, форма, метод, средства, оценка, креативное мышление, профессиональная деятельность, самостоятельное обучение, навыки ответственности.

Key words: future pedagogues, technology, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tools, assessment, creative thinking, professional activity, independent learning, accountability skills.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatda loqaydlik va boqimandalikni yo'qotish, ijtimoiy illatlardan xalos bo'lishda insonlarda ijtimoiy hisobbdorlik ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki jamiyatda hisobbdorlikni shakllantirmsdan turib, ijtimoiy natijalarga va samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Hisobbdorlik tushunchasi insonga taalluqli bo'lgan muhim sifatlardan hisoblanib, mohiyatiga ko'ra insonning-insonga, insonning-jamiyatga va insonning-tabiatga munosabatlari yuzasidan bir-biridan ajralib turadi. Biroq bu degani ularning ar biri alohida-alohida emas, aksincha, bir-birini uzviy to'ldirgan holda va bir-biriga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammolari bilan O.A.Abdulina, L.V.Andropova, Y.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, S.Y.Batishev, Y.M.Borisova, I.V.Grishina, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, V.A.Kan-Kalik, Ch.Crook, K.Daphne, L.Galliani, E.C.Jansen, M.Nentwich, A.Pritchard, W.Richardson, R.X.Djurayev, A.R.Xodjabayev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, Sh.Qurbanov, Q.T.Olimov, E.O.Turdiqulov, M.B.O'razova, J.A.Hamidov, Z.K.Ismailova, X.F.Rashidov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, D.O.Ximmataliyev, O.E.To'raqulov, B.A.Nazarova, B.S.Nuridinov va boshqalarning ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan. Shuningdek, mustaqil ta'limni tashkil etishda elektron resurslardan foydalanish usullari, masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash muammolari ustida A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.SH.Begimqulov, R.H.Jo'rayev, F.I.Zakirova, R.D.Shodiye, N.I.Taylaqov, U.M.Mirsanova lar izlanishlar olib borishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek tilining izohli lug'atida hisobdorlik tushunchasi bilan bog'liq ikki so'z keltirilgan: hisob va hisobdorlik. Lug'atda hisob so'ziga quyidagicha izoh keltiriladi: "ko'pchilikka yoki kimsaga qilingan, bo'lgan ishlar haqida beriladigan ma'lumot" sifatida tariflangan. Shuningdek, hisob "biror-bir ishning qanoatlantirilganligi, o'rniga o'tishini" ham anglatadi. "Hisobdorlik" bo'lsa, "hisobga ega, hisob beruvchi va o'z ishlari haqida biror kimsa yoki tashkilotga hisobot berib turadigan shaxs" sifatida tariflangan. Demak, hisobdorlik erkin faoliyat asosida ichki mas'uliyatni anglagan holda o'zi bog'langan jamoaga hisob berishga qaratilgan xatti-haratga hisoblanadi.

Fikrimizcha, hisobdorlik vijdon bilan bog'liq fazilat bo'lib, unga ko'ra, inson o'zini jamiyatning bir parchasi deb biladi. Hisobdorlik – jamiyat yutug'idan quvonib, kamchiligini bartaraf etish yo'lidagi xatti-harakatlarda ham namoyon bo'ladi. Jamiyatning har bir a'zosi o'zini mamlakatning buguni va ertangi istiqboli uchun daxldor debbilsa, har bir xatti-harakatida o'sha tuyg'uni his qilib faoliyatyritsa, o'sha mamlakatning buguni va ertangi kuni porloq bo'ladi. Shunday ekan bo'lajak pedagoglarda o'z kasbiy faoliyatga va strategik vazifalarga hisobdorlikni shakllantirish zarur hisoblanadi.

Hisobdorlik loqaydlik va befarqlikni oldini oluvchi, loqayd bo'lmaslikni majburiyatga aylantiruvchi ko'nikma hisoblanadi.

Professor Muhammadjon Qur'onovning fikricha, "insoniyat boshiga uzoq-yaqin tarixida qancha kulfaat, kasofaat tushgan bo'lsa, insonning o'z hayotiga, taqdriga loqaydligi, beparvoligi sabab bo'lgan. Loqaydlik hodisasining mohiyatini aniqlash uchun, dastlab uning lug'aviy ma'nosi haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Buning uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga qaralsa, loqayd degan so'z arab tilidan olinib: ahamiyat, e'tibor bermaslik; beparvolik, qiziqmaslik, befarqlik ma'nolarida ishlatilishi ko'rsatilgan. Darhaqiqat, insonning tashqi olam ta'sirini sezgan taqdirda ham, o'jarligi, mutaassibligi oqibatida ongida qayd qilmasligi va amaliy faoliyatsizligi shu so'zda o'z ifodasini topgan". Bundan kelib chiqadiki, hisobdorlik tushunchasi beparvo, befarq va bee'tibor insonlarga nisbatan ishlatilmaydi.

G'arb mamlakatlarda ham hisobdorlikni shakllantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan Jumladan, tadqiqotchi olim S.Rubinshteyn fikricha, shaxsning hisobdorlik ko'nikmasi uning o'zgaruvchan vaziyatda aloqadorlik tanlovi bilan bog'liq bo'ladi. Boshqa bir olim A.Leontyev qarashlarida hisobdorlik subyektni o'zini-o'zi o'zgartirishi asosida kechadi, degan fikrni ilgari suradi.

Yana bir olim G.V.Verjibuk ijtimoiy yangiliklarni faoliyatda qo'llash, ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatni tushunish, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega xatti-harakatlar majmuini, ijtimoiy qadriyatlarni, ijtimoiy hayotdagi norma va qonuniyatlarni qabul qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etish, yechimini ishlab chiqish, amalga oshirishda mas'uliyatni olish, bilim, aql bilan sotsiumga moslashish qobiliyati milliy mansublik va hisobdorlikning integrativ jihatni hisoblanadi.

Boshqa bir olim L.M.Semenyukning fikricha, hisobdorlik va ijtimoiy mas'uliyatni anglash o'zini-o'zi anglashdan boshlanadi. Bu shaxsda individual xususiyatlarni anglash, maqsadga yo'nalganlik, kelajakni belgilash va o'zini rivojlantirish yo'lini aniqlashga olib keladi.

Tadqiqodchi Y.G.Shelokova agar har qanday tipdag'i insonda o'zini-o'zi rivojlantirish va o'zini anglaganlik darjasini yuqori bo'lsa, hisobdorlik ko'nikmalari rivojlangan bo'ladi, deb hisoblaydi.

ILMIY AXBOROT

U o‘zini-o‘zi rivojlantirish darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy munosabatlarda “yuqori”ga yurishdan ko‘ra, unga “chuqurroq” kirishish xarakterli, deb hisoblaydi.

Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan hisobdor ekanligini tushunib yetgan shaxs ana shu jamiyatni farovon qilishga, rivojlantirishga intilib yashaydi.

Hisobdolikning ziddi bo‘lgan boshboshoqlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, egotsentrizm, eskapizm, daunshifting g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi tushunchalarni kiritish mumkin.

Egotsentrizm [lot. ego – men centrum – markaz, о‘rta(lik)] manmanlik va xudbinlik (egoizm)ning yuqori darajasi bo‘lib, u shaxsning faqat o‘z qiziqish doirasida bog‘lanib qolishi, boshqalarning fikri bilan hisoblashmay, faqat o‘z fikrlari va shaxsiyatini yuqori qo‘yishidan iborat xislati.

Daunshifting (inglizcha downshifting, avtomobil tezligini pasaytirish, u yoki bu jarayonni sekinlashtirish, sustlashtirish). Termin “o‘zi uchun yashash”, “boshqalar bilan bog‘liq maqsadlarni rad etish” falsafasining maqsadini ifodalaydi. Daunshifterlar jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlardan yuz o‘girgan, umum manfaatlardan, jamiyat farovonligi, tinchligi kabi qadriyatlar uchun mehnat qilish o‘rniga o‘zi uchun yashashni ustun qo‘yadi.

Bo‘lajak pedagoglarda hisobdorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini quydagicha asoslash mumkin.

Birinchedan, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy faoliq, mehnatsevarlik, kreativlik sifatlarini shakllantirish uchun ularda avvalo kasbiy hisobdorlikni shakllantirish zarur. Shu bois oliy pedagogik ta’limda mas’uliyat va hissob berib borish hissini mustahkamlash ham ijtimoiy hisobdorlikni tarbiyalash ustuvor vazifalardan biridir.

Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda korrupsiya va korrupsiion munosabatlars avj olayotgan bir vaziyatda bu illatga qarshi kurashishning yo’llaridan biri sifatida bo‘lajak pedagoglarning kelgusidagi kasbiy faolida hisobdorlik ko‘nikmalrini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Chunki ma’llim shaxsga yoki tashkilotga hisobdor bo‘lgan, hisobdorlik mexanizmlari yaratilgan, o‘z o‘ziga va jamoaga vijdonan hisob berib ishlaydigan pedagoglarda bunday illatlar kuzatilmaydi.

Uchinchedan, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishning muhim omili sifatida jamiyatda va insonlar o‘rtasida hisobdorlik ko‘nikmalarini va ijtimoiy institutlarda hisobdorlik mexanizmlarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki nimagadur hisobdor ekanligini his qilgan pedagoglarda o‘zaro hamjihatlik va birdamlik kuchli bo‘ladi. Bunday hamjihatlik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni shakllantiradi.

XULOSA

Hisobdorlik tuyg‘usining ijtimoiy imkoniyatlari quydagicha namoyon bo‘ladi: insonning o‘zligini anglashshiga imkon beradi; jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minalashga hizmat qiladi; turli tahdidlardan saqlanish va himoyalanishga hizmat qiladi; korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo‘lishni keltirib chiqaradi; insonni burch va mas’uliyatni ongli anglashga va uni sidqidildan bajarishga yo‘naltiradi; kasbiy mas’uliyatni oshiradi; jamiyatda tahdidlar va tajovuzlarga qarshi himoya immunitetni mustahkamlashga yordam beradi. Bugungi kunda oliy ta’lim talabalarida hisobdorlik ko‘nikmalrini rivojlantirish dolzarb muammo hisoblanib, uning ijobiy yechimini topish pedagogika nazariyasi oldida turli kechiktirib bo‘lmaydigan masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Боймуродов Г. Педагогик касбга тайёргарлик самараси. Узлуксиз таълим журнали. 2014. 3-сон. –Б. 42
2. Жалилова С.Х., Ҳайдаров Ф.И., Ҳалилова Н.И. Касб психологияси. Т.: 2010. – Б. 105.
3. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – Москва.: «Академия», 2013. –С. 38
4. Йўлдошев Ж.Ф., Ҳасанов С. Педагогик технологиялар / Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-Молия, 2009. –Б. 652.
5. Лукъянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10. – С. 56-61
6. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчisinи касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фун док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132
7. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчида касбий маданий муносабатларини шакллантириш тизими. Тошкент.: Фан. 2005. –Б. 10.